

ONANI YARATMASIN EKAN...

Durdona Mardonova Shermurotovna

Toshkent Profi University

Xorijiy til va adabiyoti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ona timsolining hayotdagi o‘rni, uning fidoyiligi, mehribonligi va o‘z farzandiga bo‘lgan sof muhabbatini yoritadi. Matnda onaning o‘z manfaatini unutib, farzandi uchun barcha narsadan kechishga tayyorligi amaliy hayotiy misollar orqali tasvirlangan. Shuningdek, tarixdagи ayollarning jasoratlari haqida ma’lumotlar keltirilgan, “Onani yaratmasin ekan” iborasining chuqur ma’nosи yillar osha insonning hayotiy tajribasi bilan ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ona, mehr, fidoyilik, muhabbat, oilaviy qadriyatlar, hayotiy misol, ota-ona hurmati.

KIRISH

Ona mavzusiga to‘xtalar ekanmiz onani ta’riflash uchun dunyo so‘zlarini to‘plasangiz ham bir ona so‘zini ifoda etolmaydi. Biroq ko‘zga yosh olib kelgan hikoyani eslatmoqchiman sizlarga sevimli yozuvchilarimizdan biri O’tkir Hoshimovning DUNYONING ISHLARI nomi asarida Gilam paypoq degan hikoya bor. Siz ham eslagan bo‘lsangiz kerak. Gilam paypoq hikoyasida bir ona va uning yolg‘iz o‘gli yashar edilar. Kunlardan bir kun ona ne ko‘z bilan ko‘rsinki bolasi olov bo‘lib yonardi isitmalab yotgandi Ona juda qo‘rqib ketdi va endi nima qilaman, bolam o‘lib qoladi! deb chinqira ketdi yugurib tashqariga otildi tashqarida oppoq qor izg‘irin sovuq edi, bolasini ko‘targancha tabibning uyiga kelishdi bolasini tabib tomog‘ini chayqab qo‘ydi, keyin bola biroz o‘ziga keldi. Tabib birdan onasining qip-qizil go‘shtdek oyoqlariga qarab voy oyog‘ingni sovuq olibdiku dedi, chunki ona bolasining sog‘lig‘i uchun qorda yalangoyoq kelgan edi. Shu joyini o‘qigan sarim ko‘zimga yosh keladi ona shunchalar bolasi uchun jonini ham ayamaydimi?

ASOSIY QISM

Onani yaratmasin ekan... Ona... Bu uch jumla zamirida olam-olam bardosh, matonat yashirin. Ona bu sening yorug‘ dunyodagi ko‘ngli oq farishtang, eng yaqin do‘sting, mehribon insoningdir. Ona seni hech qanday manfaatsiz yaxshilik ko‘rvuchi yagona insondir.

Bundan bir necha yillar oldin “Onani yaratmasin ekan” degan jumlanı eshitganedim, o‘sha paytlar men mакtab o‘quvchisi edim ,bu gapni yaxshi anglamagan ekanman affsus.. Mana, endi yillar o‘tib, oilali bo‘lib, bu jumla ortida butun bir

olamma’no borligini anglab yetdim. “Onani yaratmasin ekan” degan jumlalar shunchaki so‘z emas, balki hayotiy haqiqat ekan.

Ayol zotining dunyoga kelishi bilan uning zimmasiga oilaga xizmat, farzandtarbiyasi, eriga mehr berish kabi ulkan mas’uliyatlar yuklanadi. Bu mas’uliyatlar orasida agar o‘qisa yo ishlasa yaxshi xodima bo‘lish ham qo‘shiladi Bular ham hech narsa emas, ular uchun ...

Biroq Ayol “ona” maqomiga erishgach, o‘zini butkul unutadi, butun borlig‘ini farzandiga bag‘ishlaydi. Nima bo‘lsa, nima yesa, qayerga borsa – hammasini bolasi bilan o‘rtoqlashadi. Ko‘z oldingizga keltiring: oila a’zolarining bilan birga ovqatlanish uchun restaranga boardingiz, bir sabab boldiyu mashg‘ulotlari borgili uchun ukangiz borolmadi, shu payt onangizga etibor bering dasturxon ustida eng yaxshi taom bo‘lsa, ham ona bolam kelmadiya, tomog‘imdan o‘tmayapdi usiz deydi, bolasi uchun olib qo‘yadi ,hatto eng sara narsalarni bolasiga olib boradigan yagona shaxs bu onadir....

Ona ko‘ngli shunchalik mehribonki bolasi kichkina vaqtarda oyoq kiyimini kiyolmasa, ona yugurib boradi, unga yordam beradi. Agar uyda oxirgi non bo‘lsa, uni bolasi yeb qo‘yishini istaydi. Bunday fidoyilikni hech kim, hech qachon ona kabi qila olmaydi. Shunday onalarni ko‘rganmanki.. beixtiyor ko‘zimga yosh keladi. Ona uchun bolasi turganda ko‘zga hech narsa ko‘rinmaydi, o‘zi pulga muhtoj bo‘lsa ham,Ro‘zg‘orda kamchilik bo‘lsa ham,bolasi uchun borini beradi. Farzandi biror narsani so‘rasa, topib beradi. “Bolam yig‘lamasin, bolam o‘kinmasin”, deydi. Ana endi angladingizmi, “Onani yaratmasin ekan” degan jumlaning ma’nosini? Shunday aziz, shunday betakror zot bo‘lganlari uchun ham: “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” – deb bekorga aytilmagan. Ona shunday buyuk zotki, uning o‘rnini hech kim bosolmaydi. Onangizni asrang, zero sizni manfaat kutmasdan sof muhabbat bilan sevuvchi yagona inson onadir.

Ona bu hayotimizdagi eng oliy ne’mat, eng sof muhabbat, eng cheksiz sabr timsolidir. U dunyoga kelgan kundan boshlab faqat berishni, mehr ularishni, boshqalarning baxtidan baxt topishni biladi. Onaning mehri shunday bir daryo bo‘lib, u hech qachon qurimaydi, hech qachon kamaymaydi. Hatto ko‘ngli ranjigan paytda ham u bolasini duo bilan yod etadi.

Yodingizdami, endigina atay chechak qilib yuradigan kichkina qizaloqlar ham, o‘yinlari davomida adyoldan chaqaloq yasab ko‘tarvolishadi,xato kichkina qizaloqlar ham muqaddas Ona unvoniga intilishlari bejizga emas, qishning qahratonida maktabdan qaytayotib qo‘llaringiz muzlab ketganida, ona sizga qo‘lqopini yechib bergen, lekin o‘zi sovuqdan qaltirab qolgan paytlar? Yoki issiq yoz kunida sovuq ichimlik faqat bitta bo‘lib, uni sizga bergen, o‘zi esa chanqoq qolgan damlar? Bu oddiy holatdek tuyulsa-da, aslida u dunyodagi eng yuksak fidoyilikdir.

She'r tilida aystsak:

**Ona - quyosh, nur sochar, mehr sochar,
Ona - bahor, yuraklarga gul ochar.
Ona - yomg'ir, yuvadi dard-u g'amni,
Ona - shunday, almashtirib bo'lmas kamni.**

Ona hayotimizda eng buyuk ustoz hamdir. U bizga nafaqat so'z bilan, balki har bir harakati bilan saboq beradi. Masalan, bolangiz biror narsani sindirib qo'ysa, siz urushish o'rniga, sabr bilan tushuntirishga urinishingiz bu onadan o'rganilgan tarbiya sabog'idir.

Ona insoniylik matabining bosh o'qituvchisi. U bizga yaxshilikni qaytarish shart emasligini, yordam qo'lini cho'zish uchun sabab kerak emasligini, o'z baxtini boshqalarning ko'zidagi tabassumdan topishni o'rgatadi.

Buni yana she'r bilan ifodalash mumkin:

**Ona - tunlar bedor bo'lib ko'rgan tushim,
Ona - bolam deya urgan yurak ishvim.
Ona - kulib qarab, alamimni yo'qotgan,
Ona - meni qo'llab, hayotimga rang qatgan.**

Ona haqida gapirganda, hayotiy amaliy misollar juda ko'p. Bir kuni bir do'stim shunday dedi: "Bolaligimda onam menga yangi poyabzal olib berdi, o'zi esa eski oyoq kiyimini kiyishda davom etdi. Men ulg'ayib bilsam, u yil davomida o'ziga kiyim olmagan ekan. Faqat bizning quvonchimiz uchun yashagan ekan." Bu voqealar millionlab oilalarda ro'y beradi va bu faqat onaga xos xulqdir.

Shu sababli ham xalqimiz "Onaning ko'ngli Ka'ba" deydi. Chunki onaning ko'ngliga ozor berish, eng go'zal joyni vayron qilish bilan teng. Onaning roziligi esa inson hayotidagi eng katta duo, eng mustahkam qalqondir.

Ona haqidagi har bir fikr, har bir she'r, har bir misol aslida bir umrlik dostonning kichik bir parchasidir. Onani sevish, unga hurmat ko'rsatish esa hech qachon kechikmasligi kerak bo'lgan hayotiy burchimizdir.

XULOSA

Hayotimizdagi eng oliy ne'mat, mehr-muhabbatning cheksiz manbai, sabr va fidoyilik timsoli bor u ona qalbi. Bu qalb faqat berishni, boshqalarning baxtidan baxt topishni biladi. Har qanday sinovda ham, eng qiyin vaziyatda ham uning mehr-muhabbati so'nmaydi, aksincha yanada kuchayadi.

"Onani yaratmasin ekan" degan so'zlar hayot haqiqatining teran ifodasidir. Mehribonlik va fidoyilikda ona bilan teng keladigan inson yo'q. Shu bois uni asrash, qadrlash va hurmat qilish – har birimizning ulkan burchimizdir.

Uning roziligi esa dunyodagi eng katta duo, uning mehr-muhabbati esa hayotimizni yorqin nur bilan to'ldiruvchi eng buyuk ne'matdir.

Ona – bu dunyodagi eng buyuk, eng sof va eng muqaddas mehr manbai. U faqat berishni biladigan, o‘zini farzandlari va oilasi uchun butkul bag‘ishlaydigan ulug‘ zotdir. Onaning sabri, fidoyiligi va mehr-muhabbati hech qachon kamaymaydi, aksincha, hayotning barcha sinovlarida yanada kuchayadi. “Onani yaratmasin ekan” degan so‘zlar – shunchaki gap emas, balki hayotning eng haqiqatli va teran ta’rrifidir.

Ona hayotimizdagi eng yaqin do‘sit, eng ishonchli yordamchi va eng yaxshi ustozdir. Shu bilan birgalikda yurt ishonchi- millat umidi U bizga nafaqat mehr va g‘amxo‘rlik, balki insoniylik, sabr-toqat va mehr-muruvvatni ham o‘rgatadi. Hozirgi rivojlangan Jannatmonad yurtimizda ayolarimiz uchun keng imkoniyat eshiklari lang ochilgan. Har sohada yetakchi ayolarimiz borligi aslo mubolag‘a emas; ayol o‘qituvchi ,ayol tadbirdor, ayol do‘ktr, ayol deputad, bular barchasi bir vaqtlar mumkin bo‘lmagan holatlar edi. Biroq shunday lavozimli ishlarda rahbar bo’lsa ham uyga kelgach mehribon ona ,pazanda ayolga aylanadi. Onaning mehrini oltinga qiyoslash mumkin ,chunki yilar o‘tsada hech qachon bolasiga bo‘lgan mehri zanglamaydi. Ona mehrining o‘rnini hech kim bosa olmaydi, shuning uchun uni asrash, hurmat qilish va qadrlash – har birimizning eng oliy burchimizdir.

Ona qalbi – bu Ka’badir, uning roziligi esa dunyodagi eng buyuk duo va eng mustahkam qalqondir. Ona mehrini qadrlab, unga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, hayotimizdagi eng ezgu va muqaddas vazifa hisoblanadi. Hatto tarixga nazar solsak ham Amir Temur davrida Bibixonim onamiz urush safarlariga ketganlarida yurtinini mardonavor boshqarganlar. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda xato urush davrida ham ,qiyin vaziyatga tushib qolganda Bibixonim Amir Temur ga ishonch bildirib dalda bo‘lganlari haqida ayladi.

Shunday buyuk, shunday muqaddas onalarimiz borligi biz uchun sharafdir aslida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari “Gilam paypoq “asaridan onaning yuksak inson ekanligi olib berilgan.
- 2.Abdulla Qodiri, O‘tgan kunlar — Ona va oila mavzusidagi milliy qadriyatlarni olib beruvchi asar.
- 3.Abdulla Oripov, Ona she’riyati — Ona mehrini madh etgan mashhur o‘zbek shoiri asari.
- 4.Hamid Olimjon, Onam haqida — Ona sevgisi va hurmatini ifodalovchi lirik asar.
- 5.Abdulla Aripov, Ona qalbi — Ona obrazining ulug‘vorligini ta’riflovchi adabiy esse.
- 6.O‘zbekiston milliy entsiklopediyasidan foydalanildi.